

## G'AFUR G'ULOM NASRIY ASARLARIDA BO'YOQDOR SO'ZLAR USLUBIYATI

*Obidova Dilorom Shoraxmatovna*  
*GulDU 2- kurs, magistr*

O'zbek adabiy tili leksikasi umumo'zbek adabiy tili leksikasining katta bir tarmog'i. Bu leksikani tekshirmay, uning boyliklarini, so'zlarning leksik tuzilishi, qo'llanish xususiyatlarini ochmay turib, umumadabiy tilimiz leksikasining sinxronik va diaxronik rivojini ishlab bo'lmaydi.

Bizning tilshunoslarimiz Muqimiy, Niyoziy, A.Qahhor va boshqa ba'zi yetakchi shoirlarimiz tili va leksikasini to'liq bo'lmasa ham bir muncha yoritdilar. Ammo hali ko'plab shoirlarimiz asarlarining leksikasi yoritilmagan.

G'afur G'ulom o'zbek xalqining talantli, zabardast shoirlaridan biri. Uning ijodi juda ham ko'p tomonlama, tematik jihatdan boy. Uning she'riyatida o'ziga xoslik deyarli har bir she'rida sezilib turadi. G'afur G'ulom ham o'zbek, ham rus klassiklari va sharq klassiklari asarlarini ko'p o'qigan. O'zbek xalqining turli tabaqa, toifa kishilari bilan yaqindan munosabatda bo'lganidan uning leksikasi va frazeologiyasi o'ta boy. Uning ilhombaxsh poeziyasi kishilarimizni nafosat olamiga olib kiradi, o'zining chuqur mazmuni va latofati bilan quvontirib turadi. Shoir o'zining yangi ohangi, inqilobiy ehtirosi va uslubda ixtirochiligi bilan, o'z ona tilida kishilarning mushohada doirasini kengaytiruvchi yangi vositalar yaratish bilan ustoz shoir darajasiga ko'tarildi.

G'afur G'ulom o'zbek tilini, uning ko'p qirrali qatlamini, lug'at fondini, bu tilning tabiatini, go'zalligini, nafisligi, soddaligi, sermazmunligini chuqur bilgan, tushungan, yurakdan his etgan va o'zbek tilining shu imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalangan shoirdir. So'zlardagi ko'p ma'nolilik, ularning nozik ma'nolari, qo'shimcha ma'nolarini o'rganuvchi ko'p ma'nolikdan, aytmoqchi bo'lgan fikrni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llangan shakldoshlardan, jumladan bir xillikdan qochish, his-hayajonni ta'minlash va uslubiy ravonlikka erishish uchun qo'llanadigan ma'nodoshlardan predmet va hodisalarning sifatini, qarama-qarshi ma'nolarini ifoda etishda qarama-qarshi so'zlardan, personajlar nutqining tabiiyligini ta'minlashda dialektizmlardan, tarixiy yoki zamonaviy hayotning tasvirida, ijtimoiy muhitning koloritini yaratganda eskirgan so'zlardan qanday foydalanganligi haqida fikr yuritilgan.

Xalq madaniyati va turmushining onasi, donishmandligining koni bo'lgan tildan foydalanishda G'afur G'ulom qanchadan qancha so'z tanlash, saralash «azobi»ni tortmagan, deysiz. Ana shu azob oqibatsiz qolmadi. Shoir she'rlarining har bir satridan, ifodalaridan uning bo'yi basti shundoqqina ko'rinib turibdi.

О'zbek tilshunosligida ko'p ma'noli so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha ishlar maydonga kelgan. S.Usmonov, T.Aliqulov, M.Mirtojiev, A.Abdullaeva larning ishlari shular jumlasidandir.<sup>1</sup> Bu tadqiqotlarda so'z ma'nolarining taraqqiyoti, har bir so'zning o'ziga xos tomonlari, qo'shimcha ma'nolarda va mazmunan serqirraligi haqida fikr yuritiladi hamda bir qancha ko'p ma'noli so'zlarning leksik ma'nolari, o'zaro aloqasi, bog'lanish yo'llari ochib beriladi.

Ko'p ma'nolilik bir til doirasida so'zlarning turli ma'nolari o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Borliqdagi predmet, hodisalarning o'zaro mustahkam bog'liqligini va uning tilda o'z ifodasini topganini ko'rsatadi.

Darvoqe, borliqdagi narsa va hodisalar bir-biridan tamomila ajralib qolgan narsalar bo'lmay, balki muayyan qonuniyatlar asosida uzviy bog'langandir. Shunday ekan, ko'p ma'noli so'zlarning muayyan ma'nolarini boshqa so'zlardan ajratib olib yakka holda qarash to'g'ri emas.

Ko'p ma'nolilikda ma'no aniqligini belgilashda so'zlarning bir – birlari bilan bog'lanishini hisobga olish lozim.

So'zlardagi ko'p ma'nolilik hamda ularning nozik ma'nolari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi.

Sevimli adib G'afur G'ulom poetik ijodida so'zlarning ko'p ma'noliligidan mahorat bilan va juda o'rinli foydalana olgan. U har bir tarixiy jarayonni haqqoniy aks ettirar ekan, xalq qalbi va ruhini butun bo'lganligi bilan ifodalashga va badiiy mahsul qaddini tiklovchi tasviriy vositalarning tabiiyligiga<sup>2</sup> alohida e'tibor beradi.

Bu fikrni quvvatlovchi bir necha misollar keltirib o'tamiz. «O'zbekcha-ruscha lug'at»da qayd etilishicha, **ko'z** so'zi asosan to'rtta ma'noga ega. Shoir o'z asarlarida ko'z so'zining bunday ko'p ma'nolilik xususiyatlaridan ustalik bilan foydalanganki, pirovardida, o'quvchi asarni o'qishi bilanoq nima haqda gap ketayotganligini osongina payqab qoladi. Shoir ko'z so'zini quyidagi ma'nolarda qo'llaydi:

1. Ko'rish a'zosi ma'nosida:  
Olmaganning olmasiday  
Kiri talashgan yuzlaring,  
Konibodom bodomiday

<sup>1</sup>Usmonov S. Metafora. –Toshkent: O'TA, 1964. № 4. –B. 34.;

Аликулов Т. Полисемия существенных в узбекском языке. –Ташкент: АКД, 1964.;

Mirtojiev M. So'zning bosh ma'nosi haqida. O'TA. –Toshkent: O'TA, 1971. № 3. –B. 43.;

Mirtojiev M. Omonimlarning polisemiya dan kelib chiqishi // Tilshunoslik masalalari. –Toshkent, 1960. –B. 12-23.

<sup>2</sup> Узбекско-русский словарь. –Москва, 1959. –B. 227.

Ko‘r-ko‘ralay ko‘zlaring.

(II tom, 1957.21)

2. Nazar, qarash, boqish kabi ma’nolarda:  
Yarim soat ichida tug‘ilib, o‘sib,  
Yashab, umr ko‘rib o‘tguvchilar bor,  
Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam - qimmat,  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor!

(II. 1957. 14)

Tanklarning tuyoqlari yerga botarkan,  
Komandirga so‘qim kirib qarab qolaman.

(«Ulug‘ bayram» she’ridan)

3. Ko‘ruv ma’nosida:  
Bog‘ aro binafsha termoqchi bo‘ldi,  
Garchand Norbibining xiradir ko‘zi.

(«Gunafsha va universal» she’ridan)

Har bolaning ziyrak ko‘zi  
Elektrik fonariday.

(«Birinchi daryo» she’ridan)

4. Narsa-predmetning ko‘zchasi, teshikcha, uyacha kabi ma’nolarda:  
Anhorchada yana biroz suzmoqchi bo‘ldi,  
Go‘zal oqshom, o‘rdak ko‘zi sevinch-la porlar.

(«O‘rdak va Turg‘un» she’ridan)

Birinchi sentyabr, baxt kitobiday  
Ochilur maktabning barcha darchasi.

(«Baxtli bolalarga» she’ridan)

G‘afur G‘ulom o‘z asarlarida bulardan tashqari **ko‘z** so‘zi ishtirokida yasalgan juda ko‘p barqaror birikmalarni qo‘llab kelgan. Bundan shoir turli maqsadlarda foydalangan. Masalan, u o‘zining poetik tilining barqaror birikmalarini qator so‘zlarga ma’nodosh sifatida tanlaydi. Chunonchi, shoir «tez» ma’nosini ifodalash uchun «Ko‘z ochib yumguncha» birikmasini keltiradi.

Ko‘z ochib yumguncha o‘tgan dam qimmat.  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

(II. 1957, 14)

Yoki shoir boshqa bir asarida «tug‘ilmoq» ma’nosini ifodalash uchun ko‘z ochmoq ifodasidan foydalanadi:

Tongning mushfiq qo‘ynida chaqaloqning yig‘isi,

Quyosh bilan barobar ko‘z ochdi yangi odam.

(II. 1957, 35)

Umuman, shoir ko‘z so‘zining ko‘p ma’nodligidan paydo bo‘lgan qator birikmalarini, maqolalarini tez-tez ishlatib turgani shundan dalolat beradi.

Tez tushishga shoshadi yo‘lovchilar beorom:

Omon-eson yetdingiz, to‘rt ko‘z tugal xotirjam.

(II. 1957, 34)

Yomon ko‘z tegmasin: shunday bo‘lganda,  
Zarafshon vodiya bir uyum tuproq...

(II. 1957, 75)

Mardlikning yuzini nurda yo‘g‘irib,  
Do‘stlarning ko‘ziga tik qaragan ko‘p.

(II. 1957, 78)